

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzarb  
muammolari**

Son 4. Jild 4.

**2024**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ 4 (4) - 2024*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2024**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

#### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

#### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

#### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

#### 22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

#### 23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

### ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари**” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

#### Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

#### Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

<i>Qurbonov Murodjon Dehqonboy o'g'li</i> "KASHKULI SALIMIY" ASARIDA USMONIY HUKMDORLAR TARIXINING YORITILISHI.....	12-17
<i>Ismoilova Diyoraoy Xursandjon qizi</i> AMIR NASRULLOH DIPLOMATIYASI .....	18-23
<i>Tursunov Farrux Fulomovich</i> ЎЗБЕКИСТОН ҲУДУДИДАГИ ТОЖИКЛАРГА ХОС УРФ-ОДАТ ВА МАРОСИМЛАР .....	24-28
<i>Usmonaliyev Isroiljon Ibrohimjon o'g'li</i> FARG'ONA VODIYSIDA "O'ZBEK" ETNONIMINING TARQALISHI .....	29-34
<i>Djurayev Ikrom Nematovich</i> YEVRUOSIYO SHORVADOR QABILALARINING FARG'ONA VODIYSIGA KIRIB KELISHI.....	35-40
<i>Esanova Nilufar Pulatovna</i> MUSTAQILLIK YILLARIDA O'ZBEKISTONDA YENGIL SANOAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLAR .....	41-46
<i>Абдурахимова Сабоҳат Эргаш қизи</i> БУХОРО АМРЛИГИ ДАВРИДА ЧИРОҚЧИ ТУМАНИНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ ТАРИХИ .....	47-53
<i>Toshturov Shuxrat</i> MUSTAQILLIKKACHA BO'LGAN DAVRDA NAVOIY VILOYATI SANOAT KORXONALARINING EKOLOGIK MUHITGA TA'SIRI .....	54-60
<i>Kanimkulov Olimjon Sheraliyevich</i> AKADEMIK YAHYO G'ULOMOV FAOLIYATI HAQIDA QAYDLAR ("XORAZMNING SUG'ORILISH TARIXI" ASARI MISOLIDA).....	61-65
<i>Begniyazova Gozzal Allambergenovna</i> QORAQALPOQ XALQ ERTAKLARINING YIG'ILISHI VA NASHR QILINISHI.....	66-70

### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

<i>Султонов Баходир Файзуллаевич, Тураева Гулизахро Каххоровна, Норбўтаев Бахтиёр Абдурахимович</i> СИРДАРЁ ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ДОНЛИ ЭКИНЛАР ХОСИЛДОРЛИГИНИНГ 2024-2027 ЙИЛГАЧА БЎЛГАН ПРОГНОЗ ПАРАМЕТРЛАРИ.....	71-78
<i>Abdiganieva Zarapshan Salievna</i> YANGI O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI OSHIRISHDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI .....	79-85
<i>Otaxonova Odinaxon Inomovna</i> QORAMOLCHILIK MAHSULOTLARI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA OZUQA BAZASINI YAXSHILASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....	86-94
<i>Рахимов Ойбек Бахтиёрович</i> СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИ БОЗОРИДА МАРКЕТИНГ ФАОЛИЯТИНИ РЕЖАЛАШТИРИШ АСОСЛАРИ .....	95-99
<i>Хушмурадов Оман Намозович</i> СУВ ХЎЖАЛИГИНИ БОШҚАРИШНИНГ АСОСИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ .....	100-110

<i>Saitkamolov Muxammadxo'ja Sobirxo'ja o'g'li, Karabayev Rustam Zafarovich</i> BULUTLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BIZNES JARAYONLARNI TASHKIL ETISH YO'LLARI .....	111-125
<i>Фаттахова Муниса Абдухамитовна</i> ПОНЯТИЕ И ПУТИ ЭФФЕКТИВНОГО УПРАВЛЕНИЯ КРЕДИТНЫМ ПОРТФЕЛЕМ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ .....	126-133
<i>Isayev Jahongir Muzaffarovich</i> SANOAT KORXONALARINI RIVOJLANTIRISHDA AXBOROT TIZIMINI TA'MINLASH IQTISODIY МЕХАНИЗМНИНГ АСОСИЙ YO'NALISHI SIFATIDA .....	134-140
<b>09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Tilavova Umida Qahramonovna</i> RAQAMLI JAMIYATLAR TIZIMIDA INFORMATSION ETIKA KATEGORIYA VA ТАМОЙИЛЛАРИНИНГ АНАМИЯТИ .....	141-147
<i>Yulchiyev Avazbek Maxamadjonovich</i> IJTIMOIY TEXNOLOGIYALAR HAQIDAGI G'OYALARNING SHAKLLANISH EVOLYUTSIYASI .....	148-154
<i>Каримова Гулчеҳра Абдукаримовна</i> ДУНЁ ДИНЛАРИ ВА ТАЪЛИМОТЛАРДА ОТАЛИКНИ ТУШУНИШ ВА УНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	155-163
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ISLOM FALSAFASIDA DALILLASH VA VAHS YURITISH USULI ZAMONAVIY ARGUMENTLASH NAZARIYASI TALQINIDA .....	164-168
<i>Muminov Nozim Naimovich</i> THE PHENOMENOLOGICAL APPROACH IS THE KEY TO UNDERSTANDING THE SPREAD AND TRANSFORMATION OF SUFISM IN THE WEST .....	169-175
<i>Турсунов Мухиддин Болтаевич</i> СОЦИАЛЬНЫЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ СОВРЕМЕННОЙ МОЛОДЁЖИ .....	176-180
<i>Mamarasulov Ulug'bek Umirzoqovich</i> SPORT TURLARINING FALSAFIY-ESTETIK TANLILI .....	181-184
<b>10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ</b>	
<i>Исанова Феруза Тулқиновна</i> ЎЗБЕК ТИЛИДА ХАЛҚАРО ҲУҚУҚ СОҲАСИГА ОИД ЛЕКСИК БИРЛИКЛАР ВА УЛАРНИНГ ЎЗИГА ХОС ЖИХАТЛАРИ .....	185-191
<i>Петрухина Наталья Михайловна</i> КОРАНИЧЕСКИЕ МОТИВЫ В ТВОРЧЕСТВЕ А.С.ПУШКИНА И ЕГО СОВРЕМЕННИКОВ .....	192-197
<i>Исаров Оман Рисалиевич</i> ЎЗБЕК ВА ИНГЛИЗ ТИЛЛАРИДА ТАКСИС КОНВЕРБИАЛ ВЕРБАЛИЗАЦИЯСИ .....	198-205
<i>Родина Ирина Витальевна</i> АНТИНОМИЧЕСКАЯ ПАРА «МЕСТЬ» И «ПРОЩЕНИЕ» В ПОВЕСТИ-СКАЗКЕ Л. БОРОДИНА «ГОД ЧУДА И ПЕЧАЛИ» .....	206-211
<i>Ataeva Gulchekhra Bakhtiyorovna</i> THE ROLE OF IDIOMS IN ENHANCING BUSINESS COMMUNICATION: A STUDY ON THE USAGE OF IDIOMS IN BUSINESS LETTERS .....	212-220

<i>Erkinova Marxobo</i> ASSOTSIATIV MAYDON HOSIL QILISHDA LINGVISTIK OMILLARNING O'RNI .....	221-229
<i>Gulyamova Shahzoda Baxtiyor qizi</i> O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI MATNLARNING SINTAKTIK STRUKTURASI VA PRAGMATIK XOSLANISHI .....	230-234
<i>Batyrkhanova Madina Oybekovna</i> THE SOMATIC CULTURAL CODES IN THE STUDY OF ENGLISH, RUSSIAN AND UZBEK PHRASEOLOGISMS .....	235-244
<i>Aslonov Shahram Sherzod ugli, Saidova Marjona Abdimutal qizi</i> PECULIARITIES OF TRANSLATION OF POLITICAL TEXTS IN SIMULTANEOUS INTERPRETATION .....	245-250
<i>Olimova Dilafruzxon Baxtiyorjon qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA SUBYEKTIV VAHONING IFODALANISHI .....	251-254
<i>Bobojonov Dilshod Jumaqul o'g'li</i> INGLIZ VA O'ZBEK GAZETA SARLAVHALARIDA PUBLISISTIK USLUB BELGILARINING NAMOYON BO'LISHI .....	255-260
<i>Абдуллаева Нилуфар Рамазоновна, Шаймарданова Мухлиса Усмановна</i> СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ КОНЦЕПТА “РАСТЕНИЕ” В СОПОСТАВЛЯЕМЫХ ЯЗЫКАХ .....	261-266
<i>Хайруллоева Сitora Lutfulloevna</i> PSYCHOLOGICAL NOVELS OF US AND THE DEVELOPMENT OF PSYCHOLOGYSMS .....	267-272
<i>Qudratova Muxiba Kamolovna</i> “LYUIS KERROLLNING ALISA MO' JIZALAR MAMLAKATIDA ASARIDAGI HAYVON OBRAZLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI” .....	273-279
<i>Убоженко Анна Станиславовна</i> ОСОБЕННОСТИ ТЮРКСКИХ ЗАИМСТВОВАНИЙ В РУССКОМ ЯЗЫКЕ .....	280-285
<i>Тухтаева Наргисхон Исамутдиновна</i> ОТРАЖЕНИЕ ДУХОВНОГО УПАДКА ОБЩЕСТВА И ЕГО ПОСЛЕДСТВИЙ В ХУДОЖЕСТВЕННОЙ ЛИТЕРАТУРЕ .....	286-292
<i>Gulnora Xolmurodova Sattorovna, Bo'ronova Mekkamtosh Xoliqulovna</i> INGLIZ VA O'ZBEK LISONIY MANZARASIDA MAQOLLARNING O'RNI .....	293-297
<i>Алибаева Лола Намазовна</i> ЖЕНСКИЕ ОБРАЗЫ В РАССКАЗАХ Л. ПЕТРУШЕВСКОЙ .....	298-303
<i>Eshqurbonova Aziza Bozor qizi</i> DIALOGIK NUTQDA SAVOLLARNING IFODALANISHI .....	304-308
<i>Norova Rahima Fayzulloevna</i> O'ZBEK VA INGLIZ ADABIY ERTAKCHILIGIDAGI SEHRLI VOSITALARNING QO'LLANISHIDA O'XSHASH JIHATLAR .....	309-316
<i>Egamberdiyeva Iroda Abdurahimovna</i> TRANSLATIONS OF HISTORICAL WORKS INTO ENGLISH .....	317-323
<i>Axmedova Adolat Ravshan qizi</i> GASTRANOMIYA TUSHUNCHASI HAMDA GASTRANOMIK REKLAMA MATNLARI .....	324-330



<i>Asqarova Madina Boymurod qizi</i> KORPUS LINGVISTIKASIDA MATN ANNOTATSIYASINING LINGVISTIK MUAMMOLARI .....	331-334
--	---------

<i>Калниязов Есемурат Шамшетович</i> ГОСТЕВОЙ ЭТИКЕТ И СИСТЕМА ЦЕННОСТЕЙ .....	335-342
---	---------

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Bahodir To'raev</i> HUQUQIY MADANIYAT VA HUQUQIY TARBIYANING DEMOKRATIK DAVLAT RIVOJLANISHIDAGI ROLI .....	343-351
---	---------

<i>Турсоатов Содиқ</i> РАҒБАТЛАНТИРУВЧИ ҲУҚУҚИЙ СИЁСАТ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ .....	352-357
--	---------

<i>Хидиров Фурқат Шукуруллаевич</i> МАҲАЛЛА ҲУҚУҚ-ТАРТИБОТ МАСКАНИ ФАОЛИЯТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИНИНГ АСОСИЙ ВАЗИФАЛАРИ .....	358-363
---	---------

<i>Рахимбаев Уткир Файзуллаевич</i> ПРАВОВЫЕ АСПЕКТЫ КРИТЕРИЕВ ОЦЕНКИ ИНФРАСТРУКТУРЫ И СЕРВИСА ДЛЯ ТУРИСТОВ .....	364-372
---	---------

<i>Турсынбаев Азизбек Халмурзаевич</i> МЕЖВЕДОМСТВЕННОЕ ВЗАИМОДЕЙСТВИЕ КАК СПОСОБ РЕАЛИЗАЦИИ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ .....	373-377
--	---------

<i>Yakubov Abduraxmon Turayevich</i> TA'LIM HUQUQINING HUQUQIY SAVODXONLIKNI AMALGA OSHIRISHDAGI O'RNI .....	378-382
---	---------

<i>Rasulov Salimbek Baxtiyor o'gli</i> YEVROPA KENGASHINING KORRUPSIYA UCHUN JINOIY JAVOBGARLIK BO'YICHA KONVENSIYASI – KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHNING ZAMONAVIY XALQARO HUQUQIY ASOSLARIDAN BIRI SIFATIDA .....	383-387
---	---------

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Хайров Расим Золимхон угли</i> АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ МЕТОДИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА .....	388-395
--	---------

<i>To'rayev Panji To'xtayevich</i> OLIY TA'LIM MUASSASASIDA KURASHCHILARNI PSIXOLOGIK JIHATDAN TAYYORLASH .....	396-400
---	---------

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i> TALABALARNI KASBIY-PEDAGOGIK FAOLIYATGA TAYYORLASHDA IJTIMOIIY FAOLLIKNING AHAMIYATI .....	401-406
--	---------

<i>Yuldasheva Sayyora Aliaskarovna</i> TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI INTEGRATSION O'QITISH .....	407-411
---	---------

<i>Turdimurodov Dilmurod Yo'ldoshevich</i> SPORT MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA PEDAGOGIK NAZORATNING AHAMIYATI .....	412-418
---	---------

<i>Абдувахобов Искандер, Гизатулина Ольга Ивановна</i> ОРГАНИЗАЦИЯ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА В СМЕШАННЫХ СРЕДАХ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ВУЗА .....	419-426
<i>Назарова Озода Шавкатовна</i> СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ВЫСШЕМ УЧЕБНОМ ЗАВЕДЕНИИ .....	427-432
<i>Pirnazarova Sevara Doniyor qizi</i> OLIQ O'QUV YURLARIDA XORIJIY TILNI O'QITISHDA O'YIN USULLARINI QO'LLASH .....	433-438
<i>Ko'ziyeva Gulnoza Maxamadaliyevna</i> BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING PEDAGOGIK SALOHİYATINI OSHIRISH METODIKASI .....	439-444
<i>Умирзокова Сурайё</i> ТАЛАБАЛАРИНИНГ КИНЕТИК ИНТЕЛЛЕКТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ХОРИЖИЙ МАМЛАКАТЛАР ТАЖРИБАСИ .....	445-451
<i>Olimova Nigora</i> MUVAFFAQIYATLI O'RGANISHDA SINFINI BOSHQARISH KO'NIKALARINING AHAMIYATI .....	452-463
<i>Nabiyeva Firuza Odil qizi</i> “ELEKTROMAGNETIZM” BO'LIMINI O'QITISHDA AMALIY MASHG'ULOTLARNING AHAMIYATI .....	464-471
<i>Sobirova Oygul Alimovna</i> BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARIDA METODIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING MAVJUD HOLATINI TAHLILYIY VAHOLASH .....	472-479
<i>Shermatov G'ulom Kaxxorovich</i> IMPROVING THE TECHNIQUE OF BADMINTON SPORTS TRAINING .....	480-486
<i>Shamirzayeva Zarifa Xudoyorovna</i> TALABALARDA KASBIY KO'NIKALARNI SHAKLLANISHIDA MIKROTA'LIM O'QITISH TEKNOLOGIYASINING SAMARALI JIHATLARI .....	487-492
<i>Ziyadullayeva Dilafruz Xudayberdiyevna</i> O'SMIRLARDA YETAKCHILIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETINSIYAVIY FAOLIYATNING PEDAGOGIK ASOSLARI .....	493-498
<i>Muydinov Firuzjon Farxodjonovich</i> TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI .....	499-505
<i>Egamberdiyeva Feruza Abdimannonovna</i> MULTIMEDIA TEKNOLOGIYALARIGA ASOSLANGAN DASTURIY TA'MINOTNI LOYIHALASH .....	506-510
<i>Худойбердиева Дурдона Баходир қизи</i> ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННАЯ ТЕХНОЛОГИЯ ОБУЧЕНИЯ В РАБОТЕ С ОДАРЕННЫМИ ДЕТЬМИ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА .....	511-516
<i>Курбонов Дониёрбек Кахрамонович</i> ОБУЧЕНИЕ ПОЭЗИИ С ПРИМЕНЕНИЕМ СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ .....	517-524

*Shamsiddinov G'iyos Xusniddin o'g'li, Jurayeva Feruza Baxtiyor qizi*

**IQTISODIYOT YO'NALISHI TALABALARIGA EKONOMETRIKA FANINI O'TISHNING**

**INTERAKTIV USULLARI ..... 525-532**

*Эрназаров Алишер Эргашевич, Бекмурадов Зариф Хуррамович*

**ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИНГ МОДУЛЛИ ВА ЛОЙИҲАЛАШТИРИЛГАН ТУРЛАРИ ҲАМДА**

**АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ ..... 533-539**

**Muydinov Firuzjon Farxodjonovich**  
FJSTI bo`lim boshlig`i katta o`qituvchi  
[firuzjon7727@gmail.com](mailto:firuzjon7727@gmail.com)

### **TIBBIY TA'LIM TALABALARIDA MEDIAKOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI**

**Annotatsiya.** Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, samaradorlik darajasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Bu orqali mazkur muammoning ahamiyati, uni yechishning pedagogik modeli, shart-sharoitlari va u orqali erishiladigan natijalarni ko'rish mumkin bo'ladi. Shuningdek, tibbiy ta'lim tizimi uchun mediakompetentlikni rivojlantirishning zarurati va bo'lajak shifokorlarni tarbiyalashdagi muhimligini ko'rsatib berish orqali tadqiqot ishining ilmiy farazini isbotlash mumkin bo'ladi. Shunga ko'ra, bo'lajak shifokorlarning medikompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik tizim samaradorligini aniqlashning muhim shartlaridan biri – ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarining to'g'ri tashkil etilishidir. Tasdiqlovchi tajriba-sinov ishlari orqali tajriba ishlarining maqsadi va vazifalari, eksperimentning aniq mezonlari, shart-sharoitlarining nazariy tahlili keltiriladi va bu orqali tasdiqlovchi tajriba ishlarining mazmunini anglash mumkin bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** pedagogik jarayon, mediakompetentlik, baholash mezonlari, konsepsiyasi, axborot-psixologik xavfsizlik, axborot madaniyati.

---

**Muydinov Firuzjon Farxodjonovich**  
Head of department, FMIPH

### **METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF MEDIACOMPETENCY IN THE STUDENT OF MEDICAL EDUCATION**

**Abstract.** It is important to analyze and summarize the results obtained in the pedagogical process aimed at developing the mediacompetency of medical education students, to develop a methodology for determining the level of efficiency. Through this, it will be possible to see the importance of this problem, the pedagogical model of its solution, the conditions and the results achieved through it. It will also be possible to prove the scientific hypothesis of research work by showing the need for the development of mediacompetency for the medical education system and its importance in the upbringing of future doctors. Accordingly, one of the important conditions for determining the effectiveness of the pedagogical system, aimed at the development of the mediacompetency of future doctors, is the correct Organization of highlighting experimental and test work. Through confirmatory experimental-test work, a theoretical analysis of the goals and objectives of experimental work, specific criteria, conditions of the experiment will be brought, through which it will be possible to understand the content of confirmatory experimental work.

**Key words:** pedagogical process, mediacompetence, evaluation criteria, concept, information and psychological security, information culture.

---

**Муйдинов Фирузжон Фарходжонович**  
Заведующий отдела, старший преподаватель ФМИОЗ

### **МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ МЕДИАКОМПЕТЕНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ МЕДИЦИНСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**Аннотация.** Важное значение имеет анализ и обобщение результатов, полученных в педагогическом процессе, направленных на развитие медиакомпетентности студентов медицинского образования, разработка методики определения уровня эффективности. Благодаря этому можно будет увидеть значимость данной проблемы, педагогическую модель ее решения, условия и результаты, которые будут достигнуты через нее. Также можно будет доказать научную гипотезу исследовательской работы, указав на необходимость развития медиакомпетентности для системы медицинского образования и ее важность для обучения будущих врачей. Соответственно, одним из важнейших условий определения эффективности педагогической системы, направленной на развитие медикомпетентности будущих врачей, является правильная организация акцентирующей опытно – экспериментальной работы. Посредством подтверждающих опытно-испытательных работ дается теоретический анализ целей и задач экспериментальных работ, конкретных критериев, условий проведения эксперимента, благодаря чему становится возможным осмысление содержания подтверждающих экспериментальных работ.

**Ключевые слова:** педагогический процесс, медиакомпетентность, критерии оценки, понятие, информационно-психологическая безопасность, Информационная культура.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I4Y2024N73>

Tadqiqot ishining nazariy-metodologik asoslari va muammoga doir fikrlarning amaliy ishlanmalar bilan uyg'unlashtirilganligi, mavjud pedagogik jarayonning har tomonlama tahlil etilganligi, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish va yutuqlarni boyitish ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlari davomida belgilab olindi. Shunga ko'ra, amalga oshirilgan ta'kidlovchi tajriba-sinov ishlarini samarali tashkil etish maqsadida maxsus ko'rsatkichlar tizimini o'z ichiga olgan dastur ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratildi. Mazkur dastur asosida bo'lajak shifokorlarning mediakompetentligini rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan tajriba-sinov ishlarining maqsadga muvofiqligini ta'minlovchi ko'rsatkichlar, shuningdek, tajriba-sinov ishlari samaradorligini aniqlash metodikasi yoritildi. Shuningdek, dasturda tibbiy ta'lim talabalarida mediakompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik metodikaning ahamiyatli tomonlarini baholash mezonlari ham ko'ltirilgan.

Bo'lg'usi shifokorlarning mediakompetentligini rivojlanganlik darajasini aniqlovchi va baholovchi tajriba-sinov ishlari dasturini tuzishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – tadqiqot konsepsiyasi, obyekt, predmet, vazifalari va ilgari surilgan ilmiy farazlardan kelib chiqqan holda, tajriba-sinov ishlari samaradorligini oshirishning amaliy jihatlari aniqlash va puxta o'rganish orqali, eng maqbul shakl, metod va vositalarni belgilashdan iborat [1.592b].

Tibbiy ta'lim talabalarini medikompetentligini rivojlanganlik darajasini aniqlovchi tajriba-sinov ishlari davomida quyidagi pedagogik vazifalar hal qilindi:

1. Tajriba-sinov maydonchalari aniqlandi.
2. Tajriba-sinov muddatlari, bosqichlari belgilandi va har bir bosqichda amalga oshiriladigan xususiy vazifalar aniqlandi.
3. Tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari, Ya'ni respondentlar soni belgilab olindi hamda tajriba va nazorat guruhlariga ajratildi.
4. Respondentlar tajriba-sinov ishlarining amalga oshirilishidan habardor qilindi.
5. Tajriba-sinov ishlarini tashkil etuvchi mas'ullar aniqlandi.
6. Tajriba-sinov materiallari sifatida dastlabki ishlanmalar tayyorlandi va uning mazmuni tadqiqot bazasi sifatida universitet Kengashlarining yig'ilishlarida muhokama etildi.
7. "Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizligi" va boshqa media va axborot madaniyatini shakllantirishga qaratilgan fanlar va modulli kurs dasturining mazkur yo'nalishdagi pedagogik imkoniyatlari o'rganildi.

8. Anketa, test, suhbat, intervyu, kuzatish, sotsiologik tadqiqot kabi metodlar yordamida tibbiy ta'lim talabalarining mediakompetentligini rivojlanganlik darajasi aniqlandi.

9. Tibbiy ta'lim talabalarining mediakompetentligini rivojlantirish jarayonida qo'llaniladigan maqbul shakllar, metodlar va vositalar belgilab olindi.

10. Tibbiy ta'lim talabalarida mediakompetentlikni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodika ta'kidlovchi tajriba-sinov jarayonida sinovdan o'tkazildi hamda uning natijalari tahlil etildi.

11. Tibbiy ta'lim talabalarida mediakompetentlikni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan metodika samaradorligini aniqlashga erishish. Shu maqsadda tadqiqot obyekti hisoblangan tajriba-sinov maydonlarida auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg'ulotlarda taqdim etilayotgan metodikadan foydalanildi hamda uning samaradorligi aniqlandi, zarur holatlarda uning mazmuniga o'zgartirishlar kiritildi.

12. Tibbiy ta'lim talabalarida medikompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'zgartiruvchi va nazorat qiluvchi tajribalar izchil tarzda tashkil etildi va ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi shart-sharoitlar yaratildi.

13. Tajriba-sinov ishlarining natijalarini umumlashtiruvchi, ta'kidlovchi, o'zgartiruvchi, shuningdek, nazorat qiluvchi tajriba ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi, samaradorligi xususida yakuniy xulosa chiqarildi va umumiy natijalar matematik-statistik metod yordamida qayta ishlandi.

Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirish bo'yicha tashkil etilgan tajriba-sinov ishlari quyidagi tamoyillarga muvofiq amalga oshirildi:

- tajriba-sinov ishlarining aniq maqsadga yo'naltirilganligi;
- tajriba-sinov ishlarining izchilligi, tizimlili va uzviyligining ta'minlanganligi;
- muammoning nazariy asoslari bilan amaliy ishlanmalar orasida o'zaro aloqadorlikning mavjudligi;
- respondentlarning o'z imkoniyatlarini erkin ro'yobga chiqara olishlariga erishilganligi;
- tajriba-sinov ishlarini tashkil etishdan ko'zlangan asosiy maqsadga erishish uchun qulay pedagogik vaziyatning vujudga keltirilganligi.

Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirish bo'yicha tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyati quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish orqali ta'minlandi:

- tajriba-sinov materiallari mazmuni asosiy maqsaddan kelib chiqqan holda tanlanganligi;
- tajriba-sinov materiallariga mos keladigan didaktik vositalar, shakllar, usullar va metodlarning tanlanganligi;
- tajriba-sinov jarayoni ishtirokchilari – respondentlar sonini taqqoslash, qiyoslash imkoniyatini beradigan ko'rsatkich bo'la olishiga erishilganligi;
- respondentlarning tajriba-sinov ishlari mazmun-mohiyatidan to'laqonli tarzda habardor etilganligi;
- tajriba-sinov ishlarini amalga oshirishda tadqiqotchi yoki ushbu faoliyatni tashkil etishga mas'ul bo'lgan yetakchi-pedagog bilan respondentlar o'rtasida samimiy muloqot hamda o'zaro hamkorlikning o'rnatilganligi;
- tajriba-sinov ishlarini yo'lga qo'yish maqsadida respondentlar bilan muloqot qila olish imkoniyatining yaratilganligi;
- tajriba-sinov ishlari natijalarining doimiy ravishda umumlashtirib tahlil etilganligi;

– umumiy natijalarni qayta tahlil etish imkoniyatini beradigan matematik-statistik metodlarning aniqlanganligi.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda quyidagilarga alohida e'tibor qaratildi:

1. Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirish jarayonida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashuviga erishish.

2. Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirishda kompleks pedagogik omillarga tayanish.

3. Mediata'lim, mediasavodxonlik va mediamadaniyatni shakllantirishning ilmiy asoslarini talabalar tomonidan chuqur o'zlashtirilishiga erishish.

4. Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirish asosida ijtimoiy faollikni shakllantirishga erishish.

Qo'yilgan maqsad va vazifalar bilan bog'liqlikda 2020-yildan 2023-yilgacha tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Amalga oshirilgan ishlar 3.1-jadvalda o'z aksini topgan.

### 3.1-jadval

#### Tajriba-sinov ishlari bosqichlari, maqsadi va metodlari

Bosqich	Tavsif
I bosqich (2020-2021 yy)	1. Maqsad – Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirishga tayyorgarligining dastlabki holatini o'rganish va uni hal etishning samarali yo'nalishlarini aniqlash
	Metodlari: analiz va sintez, umumlashtirish, tizimlashtirish; anketa; test; kuzatish; talabalar bilan suhbat o'tkazish; aniqlovchi eksperiment; matematik statistika metodlari; ma'lumotlarga ishlov berishning grafik metodlari; natijalarga ishlov berishning matematik metodlari.
	Vazifalar: Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirishga tayyorgarlik darajasini aniqlash; tayyorgarlik darajasini mezonlari va ko'rsatkichlarini aniqlashtirish; Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirish modeli mazmunini aniqlashtirish; Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi mazmunini aniqlashtirish; nazorat va tajriba guruhlarini shakllantirish; Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirish kompetentligini aniqlashtirish, mezonlari va ko'rsatkichlarini belgilash, tashxis etish metodikasini aniqlashtirish
II bosqich (2021-2022 yy)	2. Maqsad – 1. Shakllantiruvchi tajriba-sinovni o'tkazish. 2. Tadqiqot farazini aniqlashtirish va tekshirish. 3. Taklif etilgan texnologiya va pedagogik shart-sharoitlarni amalda sinab ko'rish
	Metodlari: Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini faoliyatini rivojlanganlik darajalarini kuzatish; ekspert baholash, anketa, test; shakllantiruvchi eksperiment; matematik-statistik metodlar; ma'lumotlarga ishlov berish metodlari; natijalarga ishlov berish metodlari.

	Vazifalar: Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirish texnologiyasi va pedagogik shart-sharoitlarni ishlab chiqish hamda amaliyotga tatbiq etish; texnologiyani amalga oshirishga doir metodik qoidalarni o'rnatish; pedagogik shart-sharoitlarning har birini alohida-alohida va yaxlitlikda tajribada sinab ko'rish; tajriba-sinovning borishi va natijalarini tahlil etish; statistik ishonarli dalillarni olish uchun zarur shart-sharoitlarni aniqlashtirish; eksperimental ma'lumotlarga ishlov berish va qayta tahlil etish, xulosalarga kelish; Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirishga doir tavsiyalar ishlab chiqish.
<b>III bosqich (2021-2022 yy)</b>	Maqsad – eksperimental ma'lumotlarni o'zlashtirish, ularni tahlil va talqin etish
	Metodlari: materiallarni umumlashtirish va tizimlashtirish; natijalarga matematik va statistik ishlov berish metodlari; eksperiment natijalarni ko'rgazmali taqdim etish metodlari.
	Vazifalar: tajriba-sinov ishlari jarayonida olingan natijalarga ishlov berish va tizimlashtirish; xulosalarni shakllantirish; ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish; tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish; qo'lga kiritilgan dalillarning samaradorligini baholash va ulardan amaliy maqsadda kelgusida foydalanish yo'llarini aniqlashtirish; Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirish kompetentligini aniqlashtirish, mezonlari va ko'rsatkichlarini belgilash, tashxis etish metodikasini aniqlashtirish.

Tajriba-sinov ishlari quyidagi umummilliy va aniq-ilmiy tamoyillar asosida amalga oshirildi: yaxlitlik, obyektivlik, samaradorlik, ilmiylik, talaba shaxsiga yondashuv, ilmiy axborotlarning zarurati va yetarli bo'lishi, ilmiy-metodik maslahatning ko'p tomonlamaligi, pedagogik tajriba-sinovni insonparvarlashtirish. Quyida mazkur tamoyillarga qisqa to'xtalib o'tamiz.

Yaxlitlik tamoyili: a) tizimli-jarayonli yondashuv; b) talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida o'rganilayotgan hodisaning o'rnini aniq belgilash; v) o'rganilayotgan hodisaning dinamikasini ochib berishni talab etadi. Mazkur tamoyil asosida tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirish modelini amalga oshirishga rahbarlik qilindi[2.232b].

Obyektivlik tamoyili: a) bir qancha metodlar bilan har bir dalilni tekshirish; b) tadqiq etilayotgan obyektidagi o'zgarishlarning har tomonlama namoyon bo'lishini qayd etib borish; v) mazkur tadqiqot ma'lumotlarini boshqa izlanishlarda qo'lga kiritilgan ma'lumotlar bilan solishtirishni talab etadi. Mazkur tamoyildan asoslovchi va ta'kidlovchi tajriba-sinov, diagnostik dasturni ishlab chiqish, shuningdek, olingan natijalarni tahlil etish va baholashda foydalanildi.

Samaradorlik tamoyilining mohiyati shundaki, olingan natijalar bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy tayyorlashning tipik, standart shart-sharoitlarida qo'lga kiritilgan natijalardan yuqori bo'lishi lozim. U ham tamoyil, ham tadqiqotning yakuniy maqsadidir. Mazkur tajriba-sinov ishlari jarayonida pedagogik shart-sharoitlarni amalga oshirish metodikasini rejalashtirishda o'z ta'sirini ko'rsatdi[3.25b].



Ilmiylik tamoyili fanning ma'lum bir sohasidagi obyektiv qonunlar haqidagi bilimlarni obyektiv qonunlarni hisobga olgan holda amaliy eksperimental faoliyatni tashkil etish va tahlil etishni ko'zda tutadi[4.352b]. Shuning uchun pedagogik eksperimentni tashkil etishda biz pedagogika fanining rivojlanishi va funksiyalarini belgilab beruvchi obyektiv qonunlarga asoslandik, ilmiy tadqiqot o'tkazishning asosida yotuvchi ijtimoiy, iqtisodiy va psixofiziologik qonuniyatlarga e'tibor qaratdik, tajriba-sinov ishlarining vazifalarini hal etishga mos keluvchi metod va vositalarni tanlashni amalga oshirdik.

Tajriba-sinov ishlarini tashkil etishda bo'lajak xorijiy til o'qituvchisi shaxsiga yondashuv quyidagi qoidalarni amalga oshirishni talab etdi:

Eksperimentatorning (tajriba o'tkazuvchi) diqqatini bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining tajriba-sinovga munosabati, taqdim etilayotgan topshiriq va mashqlarni bajarishda ta'lim oluvchilarning qiziqishiga jalb etish;

ta'lim oluvchilarning ishchanlik qobiliyati (psixofiziologik va shaxsiy xususiyatlari) va individual yordam ko'rsatish, konsultatsiya berish;

topshiriq va metodik materiallarni ta'lim oluvchilar o'rtasida murakkablik darajasi va uni o'zlashtirishning imkoniyatlarini hisobga olgan holda taqsimlash;

o'rganilayotgan muammoning murakkab masalalarini chuqur qayta ishlab chiqish bo'yicha ta'lim oluvchilarning o'z-o'zini aniqlash, o'z-o'zini baholashiga erishish.

Ilmiy axborotlarning zarurati va yetarli bo'lishi tamoyili tajriba-sinovni aniq bazada tashkil etishda o'z aksini topadi. Profesoar-o'qituvchi va talabalar o'rtasida ilmiy ma'lumotlarning almashinuvini o'z ichiga qamrab olgan umumilmiy tushunchalar, informatsion bloklar o'quv-kasbiy faoliyatning aynan o'ziga yo'naltirilgan bo'lishi lozim zaruriy vositadir. Talabalarga taqdim etilayotgan mediata'slim yetarli va zaruriy hajmda bo'lishi lozim.

Ilmiy-metodik maslahatning har tomonlamaligi o'qituvchining o'zidan yuqori darajadagi tayyorgarlikka ega bo'lishni talab etadi[5.219b]. Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirishga tayyorlashga ko'plab omillar, shu jumladan, ta'lim mazmuni va metodlarining ta'lim oluvchilarning imkoniyatlariga mosligi o'z ta'sirini ko'rsatadi. Tajriba-sinov o'tkazish jarayonida Tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini maslahatlar berish quyidagi talablarga javob beradi:

maxsus ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni taqdim etish uni bajarishni osonlashtiradi; subyektiv jarayonni anglash va ishonch hosil qilishga yo'naltirilgan, yangi material mazmunini o'zlashtirishning interfaol metod va usullari taklif etiladi;

medianing salbiy ta'sirlariga qarshi kurashishning profilaktik chora-tadbirlarini ishlab chiqish, tanlash va moslashtirish imkoniyati taqdim etiladi.

Pedagogik eksperimentni insonparvarlashtirish tamoyili texnokratik, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ma'muriy kabilardan insoniy qadriyatlarning ustunligi g'oyasiga asoslanadi. U tajriba-sinovda quyidagi shartlarni amalga oshirishni talab etadi:

unda o'rganilayotgan jarayon va tarbiyaviy munosabatlar tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini fuqarolik huquqlarini to'liq tan olish va hurmatga asoslanish asosiga quriladi;

ta'lim oluvchilarning ijobiy sifatlariga tayanish;

o'rganilayotgan jarayon ta'lim oluvchilar uchun jamiyatning talablariga javob beruvchi axloqiy va emotsional yo'nalganlikni aks ettiradi;

tajriba-sinov davomida ishtirokchilar o'zaro munosabatlarda qulaylikni his etishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy ta'lim talabalarini mediakompetentligini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayonda qo'lga kiritilgan natijalarni tahlil qilish va umumlashtirish, samaradorlik darajasini aniqlash metodikasini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

#### Адабиётлар/Литература/References:

1. Qurbonov Sh.E., Seythalilov E. Talim sifatini boshqarish / T.: "Turon-Iqbol", 2006. - 592 b.
2. Lavrentiev G.V. Mutaxassislarni kasbiy tayyorlashda innovatsion o'qitish texnologiyalari. 1-qism / G.V. Lavrentiev, N.B.Lavrentiev. - Barnaul: Altai.un-ta nashriyoti, 2002. - 232 b.
3. Litsman G.N. O'z-o'zini tasvirlash texnologiyasi: O'quv-uslubiy majmua. - Tobolsk, 2014. - 25p.
4. Maslou A. Motivatsiya va shaxsiyat: Ingliz tilidan tarjima qilingan. - Sankt-Peterburg: Evroosiy, 2008. - 352 b.
5. Musoxranova M.B. Формирование речевой компетентности будущего врача в процессе обучения иностранному языку: dis.ped.fan.nom.: 13.00.08 / M.B.Musoxranova. - Omsk, 2002. - b.219.
6. Osipov P.N. Raqobatbardosh mutaxassislarni o'qitish va o'z-o'zini tarbiyalash zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishi sifatida // Qozon texnologik universitetining axborotnomasi, 2013. T. 16.- No 16. - P. 198-204.
7. Passov E. Chet tilidagi muloqotni o'rgatishning asosiy kommunikativ usullari. M.: 1989. S.- 78.
8. Sole N.V. Oliy matematika kursini o'qitishda universitet talabalarining mustaqil ishlarini faollashtirish: Dis. ... samimiy. ped. Fanlar. - M., 2012. - 270 b. <https://cyberleninka.ru/article/n/organizatsiya-samostoyatelnoy-raboty-pri-psihologo-pedagogicheskom-soprovozhdenii-studentov-zaochnogo-otdeleniya>
9. Polat E.S. Kompyuter telekommunikatsiyalariga asoslangan masofaviy ta'lim kontseptsiyasi // Ta'limning pedagogik va axborot texnologiyalari. - M.: Akad., 2000. - Nashr. 1. - 28 b.

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 4 (4) – 2024*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).